



# ZAMONAVIY SHAROITDA OLIJ TA'LIM PEDAGOGIKASI:

**NAZARIYA VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI**

**xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

# MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY SHAROITDA OLY TA‘LIM  
PEDAGOGIKASI: NAZARIYA VA  
AMALIYOT INTEGRATSIYASI**

**xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari**

## TARBIYA FANINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

**Jabborova O'g'iloy G'ani qizi,**

Buxoro davlat universiteti Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

**Ilmiy rahbar M.Yo.Umurova,**

Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tiladigan tarbiya fani darslari samaradorligini oshirishda interfaol multimedia vositalaridan foydalanish o'rni, usullari va samaradorligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** multimedia texnologiyalari multimedia vositalari, multimedia ma'ruza, ta'lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanish o'rni va samaradorligi.

Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yimoqda.

Jahonda bo'layotgan geosiyosiy o'zgarishlar, turli xildagi ma'naviy tahdidlar, g'oyaviy kurashlar, keskin qarorlarning qabul qilinishi, tuli mamlakat orasidagi nizolar kuchaygan bir davrda yurtimiz mustaqilligini yanada mustahkamlash, Uchinchi Renesans davrida yurtimiz kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlar tarbiyasiga e'tibor davlat siyosatining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. O'zbekistonning yangi davrida ta'lim-tarbiya masalalarini oqilona yo'lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm-fan texnologiyalari yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borib, yurt taraqqiyot, taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk, zamonaviy bilimlar va murakkab texnologiyalarni egallagan, immoni butun, irodasi baquvvat, teran fikrlaydigan, yuksak salohiyatga ega bo'lgan kadrlar hal etadi.

Mamlakatimizning ertangi kuni intellektual salohiyatiga, aql-zakovotiga, milliy ta'lim-tarbiya tizimini jahon andazalari asosida takomillashtirish zamirida ma'naviy-axloqiy sifat va fazilatlarga ega kadrlarni tarbiyalashga bevosita bog'liq.

Yuksak insoniy fazilatlardaga ega o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash yoshlarga oid davlat siyosati intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Inson o'zini o'zragtirishi uchun avvalo ilm-fan, madaniyat, ma'rifat va milliy tarbiyaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirib, mamlakat va xalqni yuksaklikka ko'tarishga hissasini qo'shadigan fuqaroga aylanishi, daxldorlik hissi, uning taraqqiyotini ta'minlash va kelajakga ishonchini oshiradi. O'zini o'zgartirishda, albatta, ilm kerak, aqli-zavovat zarur. Shunday ekan, "Ilm o'rgan, zero, faqir chog'ingda u mol, boy vaqtingda jamol – ziynatdir"<sup>1</sup>, - degan ajdodlarimizning purma'noli nasihatlariga amal qilmog'imiz kerak. Ilmning asosida tarbiya turadi, qaysikim tarbiya bor joyda ilm bo'ladi, ilm bor joyda yuksalish bo'ladi.

Ilm-tarbiya maskani bu maktab. Zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimdagi islohotlarning asosi ma'naviyat, ma'rifat, axloq, odob, tarbiya, tarbiyalanganlikka bog'liq. Bunday sifatlarni yosh avlodga o'rgatishda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fani zimmasiga to'g'ri keladi. Tarbiya faning umumiy maktablarga joriy etilishiga bevosita bog'liq. O'zbekiston Respublikasi prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida, „Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib

<sup>1</sup> Imom Abu Homid Muhammad ibn Muhammad al-G'azzoliy IHYOU ULUMID-DIN (Din ilmlarini jonlantirish) Ilm kitobi Birinchi kitob. - Toshkent «Movarounnahr» nashryoti 2007 yil. 15 bet

borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga<sup>1</sup> qo'yish va uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda.

Shu jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi mexanizmlarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg'ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish shu bilan birga multimediali ta'lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o'zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari shu jumladan multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Zamonaviy texnologiyalari ta'lim jarayoniga joriy etilgandan so'ng multimedia vositalaridan foydalanish sezilarli darajada oshdi. Media ta'lim vositalari ta'lim muassasalari tomonidan keng qo'llaniladi. Ushbu o'rganish usuli keng tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi va foydalanuvchilarga ularni an'anaviy o'qitish usullariga qaraganda kamroq vaqt ichida o'rganish imkonini beradi.

Multimediali texnologiya bir vaqtning o'zida ma'lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga qodir: matn, grafika, animatsiya, videotasvir va ovoz. Multimedaning eng muhim xususiyati interfaollik-axborot muhitida ishlash jarayonida foydalanuvchiga ta'sir o'tkaza olishga qodirlik hisoblanadi.

Interfaol multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Ta'lim tizimida interfaol multimedia texnologiyalarida an'anaviy texnologiyalarga qaraganda axborotlar matn ko'rinishda emas, balki tasvir, ovoz va harakatlar ko'rinishida ifodalanadi. Bu esa o'quvchilarni mashg'ulotlarda faolroq va diqqatliroq bo'lishga o'rgatadi, chunki axborotlar ma'lum bir harakatli amallarga mos javoblar asosida bayon qilinadi. Chunki tavsia qilinadigan har bir axborot ularning ishtiroki va harakati orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya fani nazariy materiallarni o'rganishni amalga oshirish uchun video va interfaol multimedia ma'ruzalaridan iborat multimedia o'quv kurslaridan foydalaniladi. Video ma'ruzada o'qituvchining yoki voqea qahramoni hikoyasi video plyonkaga yozib olinadi. Unga montaj usuli bilan ma'ruzani ko'rgazmaliroq qilish uchun multimedia ilovalarini qo'shish mumkin. Bundan qo'shimcha nafaqat ma'ruzani boyitadi, balki uni o'quvchilar uchun jonli va qiziqarli bayon qilinishini ta'minlaydi.

Ta'lim jarayonida fanlarni interfaol multimedia vositalari asosida o'qitishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak bo'ladi:

multimedia vositalarida oddiyroq, tushunarliroq ohanglardan hamda milliy musiqalardan foydalanishga;

tasvirlarning mohiyati jonli ovoz, tovush va nutq vositalarida oro'ali aniq va ravon yoritilishiga;

multimedia vositalarida barcha matn, tasvir, rasm, chizma va jadvallar imkon darajasida harakatli holatda ekranga uzatilishiga;

ko'rgazmalilik multimedia vositalarining asosini tashkil etishiga.

Interfaol multimedia texnologiyalari vositalari real sharoitda amalga oshiriladigan trenajyorlar, modellar va laboratoriya ishlarini yaratish imkonini beradi.

Ta'lim tizimida interfaol multimedia texnologiyalari asosida o'qitishning asosiy o'quv-uslubiy va dasturiy ta'minoti - gipermatn, video va audio-ilovalar, animatsiyalar, katta sondagi namoyish materiallaridan foydalaniladigan multimediali o'quv qo'llanmalari hisoblanadi. SHuning uchun ularni yaratishda didaktik va pedagogik-psixologik tamoyillarga asoslanish kerak bo'ladi.

Interfaol multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega: berilayotgan materialni chuqurroq, mukammalroq o'zlashtirish imkoni bor;

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, -T.: 26.03.2021 yil

ta'lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;  
ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;  
o'qituvchi sinfda bo'lishi shart emas;

olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddatsaqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniga erishiladi.

Interfaol multimedia vositalari asosida fanlarni o'qitish ma'lum bir miqdorda ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlash muammosini hal qilish mumkin. Interfaol multimedia o'quv kurslarida o'quv materiallarini to'ldiruvchi va uning qabul qilish darajasini oshiruvchi ko'rgazmali vositalari alohida ko'rgazmali jadvallar, grafik sxemalar, rasmlar va hokozalardan iborat bo'lgan slaydlar, ovozli va harakatli videofilmlar va boshqa shunga o'xshash ko'rgazmali nazariy va amaliy animatsion materiallar orqali tasvirlanishi mumkin.

Interfaol multimediya vositalari o'rganilayotgan mavzu to'g'risidagi har bir axborotni harakatli, ovozli va videoli ko'rinishlarda bayon qilib berish va katta hajmdagi axborotni uzatish uchun ketadigan vaqtni tejash bilan birga, ularni yangi axborotlarni qabul qilish va ulardan amaliy foydalanish darajasini oshiradi.

Interfaol multimediya vositalari orqali o'qitish o'quv materialining mazmuniy komponentlarini keng ko'lamda tizimga keltirishga ko'maklashadi, ta'lim oluvchilarga ta'limning to'liq yoki qisqartirilgan variantlarini erkin tanlash va o'tish imkonini beradi. Ta'lim vositalarining yangi shakli nafaqat muloqot, axborotlarni uzatish uchun yangi imkoniyatlarning vujudga kelishiga, balki an'anaviy ta'lim va ma'lum ommaviy axborot vositalari bilan taqqoslaganda zamonaviy madaniyatda o'zgacha o'rin olgan yangi muammolarning, yechimlarning, yangi kesishish nuqtalarining vujudga kelishi uchun ham imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637 son

2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. 229-230 бетлар.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son Qarori

4. Allaberganova M.X. Informatikadan interaktiv o'quv majmualar yaratish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish. P.f.n. darajasini olish uchun dis. avtoreferati - Toshkent: MCHJ "Fan va ta'lim poligraf". - 2012 y.-22 b.

5. Suyarov A.M. Ta'lim tizimida interfaol multimedia vositalaridan foydalanishning imkoniyatlari *Международный научный журнал № 7 (100), часть 1 «Новости образования: исследование в XXI веке» февраль, 2023 г*

6. Umurova M. Y. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga moslashtirish metod, vosita va usullari // *Ekonomika i sotsium.* – 2021. – №. 12-1 (91). – S. 639-642.

7. Umurova M. Yo. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools // *Vestnik nauki i obrazovaniya.* – 2020. – №. 22-2. – S. 24-26.

## **TOLERANTLIK PSIXOSOMATIKA NUQTAI NAZARIDA**

**O.O.Xonzafarov,**

**BuxDU Pedagogika va psixologiya 4-bosqich talabasi**

**Ilmiy rahbar: B.T.Jurayev,**

**BuxDU pedagogika kafedراسи dotsenti**

Dunyoda qadimdan ko'plab xalqlar birgalikda istiqomat qilib keladi. Har bir millatning o'z tili, dini, an'analari, urf-odatlarini, qadriyatlarini, xulq-atvori va fikr-mulohazalari mavjud. Endi savol tug'iladi. Agar, birgalikda yashayotgan xalqlar bir-birining dini, tili, urf-odatlarini va boshqalarni yoki boshqa bir millatdoshining qarashlari, fikri, dunyoqarashini qabul qilmasachi?

Berdiyeva Ro‘zixol Allayorovna, OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI .....	191
Beknazarova Dilafruz Amirovna, TALABALARNING MUSTAQIL VA IJODIY ISHLARINI TASHKIL ETISH SHART-SHAROITLARI VA IMKONIYATLARI .....	193
M.N.Amonov, MUSTAQIL TA’LIM OLISH VA O’ZINI O’ZI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	196

**4-ШЎБА: УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ҲАМКОРЛИГИНИ**

**РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....**

<b>199</b>	<b>199</b>
Копнова Н. В. К ВОПРОСУ МОДЕЛИ САМОУПРАВЛЕНИЯ ШКОЛЬНИКОВ В УСЛОВИЯХ УЧРЕЖДЕНИЙ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ .....	199
Исроилова Мукаддас Шониёр кизи, Рыбакова Елена Владимировна. АСПЕКТЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ-БИЛИНГВОВ С НАРУШЕНИЯМИ РЕЧЕВОЙ ФУНКЦИИ .....	202
Alimov Alisher Yarashevich, UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMI HAMKORLIGI MATEMATIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILIDIR.....	209
Aslanova Nozima Khakimovna. THE TECHNOLOGY OF APPLYING THE "4 K" MODEL IN PRIMARY EDUCATION .....	211
Eliboyeva Lola Suleymanovna. BO’SH O’ZLASHTIRUVCHI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR MAZMUNI.....	214
Коннова В.Д., Рыбакова Елена Владимировна. РИСОВАНИЕ ПОД ДИКТОВКУ КАК КОМПОНЕНТ САМОБЫТНОГО РАЗВИТИЯ РЕБЁНКА.....	217
Jabborova O’g’iLOY G’ani qizi, M.Yo.Umurova. TARBIYA FANINI O’QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARI.....	219
O.O.Xonzafarov, B.T.Jurayev. TOLERANTLIK PSIXOSOMATIKA NUQTAI NAZARIDA .....	221
Azimova Umida Latipovna, BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QUVCHILARNING OG’ZAKI VA YOZMA HISOB MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI .....	223
Ashurova Dildora G’afurovna, TIL O’RGANISHDA SAMARALI STRATEGIYALAR VA HAMKORLIKDA O’RGANISHNING AHAMIYATI .....	226
Bozorova Nozigul Ramazonovna, BOSHLANG’ICH SINF O’QITUVCHISINING KASBIY EHTIYOJLARI VA KASBIY MAHORATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI.....	229
Dilrabo Fayzulloyeva Rahmonovna, BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING O’QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PIRLS TOPSHIRIQLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	234
Jumaeva Khanifa Gaforovna, WAYS TO DETERMINE TALENTED CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION .....	236
Murodova M.M. BOSHLANG’ICH SINFLARIDA MATEMATIKA DARSLARINI INTEGRASIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH .....	240
Mustafoyeva Dilnoza, BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIGA O’RGATISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARINING O’RNI .....	242
Ostonova Umida Usmonovna, AQLI ZAIF MAKTAB O’QUVCHILARINING RIVOJLANISHIDA BADIY ADABIYOTNING O’RNI.....	244
D.J.Qo’chqorova, AKSIOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA JONDOR TUMAN TARIXINI O’RGANISHGA OID ASARLARNI GEOGRAFIK TAHLIL QILISH .....	246
M.M.Rashidova. BOSHLANG’ICH SINFLARDA “LOYIHA ISHI “INTERFAOL USULI ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.....	248
Raxmonova Dilfuza Maxmudovna, MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O’RNI .....	250
Sayitnazarova G. BO’LAJAK O’QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI.....	252